



SAIDA ZUNNUHOVA SHE'RIYATIDA TAKROR VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xo'jamberdiyeva Go'zalxon Zafarjon qizi,
QDU 3 – kurs tayanch doktoranti
guzalxonsoliyeva5@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1410>

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil Jurnal soni: 17 Maqola raqami: 60 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1410 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS takrorlar, ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori, sintaktik figuralar.	Ushbu maqolada Saida Zunnunova she'rlarida qo'llangan takrorlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Adabiy tilning badiiy ifoda imkoniyatlari doirasida takror usuli muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Takrorlar badiiy matnga emotsional ta'sirchanlik, mazmuniy aniqlik va estetik tuyg'ularni uyg'otish xususiyatlarini beradi. Tadqiqotda takror hodisasining nazariy asoslari, uning reduplikatsiya bilan bog'liqligi hamda takroriy so'z va stilistik takror o'rtasidagi farqlar yoritiladi. Takrorlarning badiiy matnda emotsional ta'sirchanlikni kuchaytirish, mazmuniy aniqlik va estetik ohangdorlikni ta'minlashdagi o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Shoir she'rlarida uchraydigan fonetik, leksik-semantik va grammatik takrorlar, ularning gorizontal va vertikal ko'rinishlari, shuningdek, ot, olmosh, fe'l takrorlari hamda so'z birikmasi va jumla takrorlari alohida tahlil qilinadi.

Kirish. Adabiy tilning badiiy ifoda imkoniyatlari doirasida takror usuli muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Takrorlar badiiy matnga emotsional ta'sirchanlik, mazmuniy aniqlik va estetik tuyg'ularni uyg'otish xususiyatlarini beradi. Takror so'zlarga qiziqish juda qadim davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotlardan ma'lumki, reduplikatsiya hodisasiga olimlar til muammolariga e'tibor bera boshlagan paytdan buyon qiziqish bildirganlar. Yunon, lotin, sanskrit va qadimgi german tillarida ko'plab reduplikatsiya hodisalari kuzatilgan. Reduplikatsiya hodisasi periferik hodisa sifatida qaralgan. "Takroriy so'z", "takroriy shakl" tushunchalari tilshunoslikda reduplikatsiya nomi bilan atalib, lotincha reduplicatio – ikkilanish, qo'shoqlanish ma'nosini bildiradi va tilda so'zlarning dastlabki bo'g'inini, o'zakni yoki so'zning butun qismini takrorlashdagi fonomorfologik hodisa hisoblanadi¹.

Takror haqida gap borar ekan, lug'aviy - nutqiy hodisa bo'lgan takroriy so'zni badiiy adabiyotdagi takroriy san'atlardan farqlash lozim bo'ladi. Takroriy so'z leksema harakteriga ega bo'lib asosan, nominativ vazifa bajaradi va nutqda biron-bir voqea-hodisa, harakatning miqdoriy ko'pligini anglatib keladi. Masalan: ishlay-ishlay charchadi, kula- kula gapirib berdi kabi. Takroriy so'z bilan takrorlash usuli kommunikativ vazifasi, ma'no va strukturali, matnda qo'llanish xususiyatlari bilan farqlanadi. Takroriy so'zda leksema, ya'ni bitta so'z yonma-yon takrorlanadi. Takroriy so'z aynan bir so'zning ikki bor talaffuz qilinishidan yuzaga keladi, bunday so'zlar orasiga chiziqcha qo'yiladi, talaffuzda yengil to'xtam bilan ajratiladi. Takroriy so'z ham badiiy tilda ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati"da: "Badiiy nutqqa xos kompozitsion-sintaktik ifoda usullaridan biri – ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha so'zni yoki so'z birikmalarini, ba'zan esa ma'lum satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his-tuyg'uni ifodalashga, uning ta'sir kuchini oshirishgava turli intonatsiyalarni bo'rttirib ko'rsatishga imkon beradigan stilistik usul"², – deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda, takroriy birliklar badiiy nutqning ohangdorligini ta'minlovchi poetik hodisa hisoblanadi. Boshqa birlug'atda esa takror quyidagicha izohlanadi: "matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn va asar kompozitsion qurilishiga xos shunday usullarning umumiy nomi. Takror badiiy asarning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan: a) badiiy nutqda : fonetik (alliteratsiya, assonans, fonetik anafora, ishtiqoq), leksik (so'z takrori, klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va boshqalar), semantik (gradatsiya, ma'no takrori), sintaktik (sintaktik parallelizm, xiazm); ritmik birliklarning o'lchov asosidatartibli takrorlanishi: turoq (rukn), misra

(yoki bahr), band; v) she'r kompozitsion darajasida, misra takrori, band takrori; g) obrazli-tematik takrorlar (tematik parallelizm, motiv)" matnning butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim vosita sanaladi. Takrorlanuvchi birliklar badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan bo'ladi. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiyalaridan biridir. Nutqda gaplarning takroriy qo'llanishiuslubiy g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq muallifning maqsadini ta'sirchan ifodalashda bunday takrorlarga ehtiyoj seziladi va ular badiiy matndagi tasviriy vositalar sifatida har doim tadqiqotchilar e'tiborida turadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika bo'yicha qilingan ishlar ko'zdan kechirilganda, deyarli ularning barchasida takror tasviriy vositasiga murojaat qilinganligi kuzatish mumkin³.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbek tilshunosligida shoir va yozuvchilarning asarlari lingvopoetik tamoyilda tadqiq etilmoqda va bu jarayonda ularning ijodi sintaktik figuralar jihatdan ham tahlil etilgan. Biroq Saida Zunnunova she'riyati tili bilan bog'liq tadqiqotlar juda oz. Shuningdek, shoiraning she'rlari muayyan bir aspektda monografik tadqiqot ko'rinishida deyarli amalga oshirilmagan. Ayniqsa, asarning sintaktik qurilishi, muallif tomonidan tilning xilma-xil ifoda vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatlarini o'rganish, asar tilning jozibasi, individual nutqiy o'ziga xosligini yoritish lingvopoetikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi⁴.

Darhaqiqat, poetik sintaksisining eng muhim masalalaridan biri matn tuzilishida tasviriy vositalarni aniqlash, ular yordamida matnda namoyon bo'ladigan muallifning badiiy olamini tadqiq qilishdan iboratdir. She'riy nutq, eng avvalo, ohangdor, ritmik-intonatsion jihatdan bir butunlik hosil qiluvchi nutq ko'rinishidir. Bu xususiyatning yuzaga chiqishida sintaktik figuralarning o'rni beqiyos.

Nutqning obrazli va ta'sirli ifodalanishi sintaktik vositalarning o'ziga xos tarzda qo'llanish usullari hamda sintaktik figura sifatida reallashuvi bilan uzviy bog'liq. Tilimizda badiiy nutqqa ta'sirchanlik, emotsionallik baxsh etadigan, o'ziga xos intonatsion yaxlitlik ifodalovchi poetik figuralar mavjud. Ular nutqni ta'sirli va jozibali qilish bilan birga fikrni tinglovchiga tez va qulay yetkazish imkoniyatini yaratadi. Bunday uslubiy vositalar – figuralar poetik nutqni shakllantirishda ham muhim vazifa bajaradi. Badiiy asarlarda ifodali nutq vositasi sifatida muhim rol o'ynaydigan, mazmunan stabilashgan nutq oborotlari sintaktik stilistik figuralar deyiladi⁵.

"Tilshunoslikda stilistik figuralar, sintaktik figuralar, poetik sintaksis terminlaridan foydalaniladi"⁶. Figura (lotincha figura – ko'rinish, tasvir, obraz) –stilistik usullarning umumiy nomi bo'lib, unda

¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маҳзани. –Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б.128

² Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Т. Ўқитувчи, 1979. – Б.235

³ Шофқоров А. Миртемир шеърятда такронинг маъновий-усlubийхусусиятлари: Филол.фан. номз.дисс. автореф. –Тошкент, 2012-Б.58

⁴ Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент, —Фан,1990, 17–42 б.; Мамажонов А., Addupatoyev

O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. (monografiya), Farg'ona: Classic, 2021. – B. 105–112.

⁵ Кўнгулов Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 105

⁶ Абдулпатоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси Филол. фан. д-ри. бўйича дис. автореф. – Фарғона, 2021.

qo'llanilgan har bir so'z yoki birikma troplardan farqli ravishda faqat ko'chma ma'noda qo'llanmaydi⁷. Ularning qo'llanishi va uslubiy ma'no ifoda etish uchun funksiyalashuvi o'ziga xosdir. Ular odatiy ma'noda qo'llanish holatlaridan tashqariga chiqib, ifodalilik va tasviriylilikni kuchaytirish maqsadida alohida obrazli birikmalar tarkibida keladi. "Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no- mazmunlarni ham ifodalay oladi. Bu ma'noda ularning badiiy matndagi estetik salmog'i leksik vositalarnikidan qolishmaydi⁸".

Natijalar. Takrorlar poetik nutqning aniq belgilangan o'rinlarda qo'llanib, fikr mazmunini kuchaytirish va ta'kidlash bilan birga, bir paytning o'zida kompozitsion yaxlitlik hosil qilish va ekspressiya ifoda etishi jihatidan muhim vazifa bajaradi. Saida Zunnunova she'rlarida ham takrorlar matnini shakllantiruvchi, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi, she'r bandlarini umumiy mazmunda bog'lovchi, ohang butunligini hosil qiluvchi birlik sifatida muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, to'liqroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta'sirchanligi ortadi. Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn shakllanishida uslubiy vazifa bajaradi: fonetik takror, leksik-semantik va grammatik takror. Fonetik takror deganda tovushlarning matn tarkibida alohida maqsad bilan takrorlanishi nazarda tutilsa, grammatik takrorda esa so'z birikmasi va gaplarning takrorlanishitushuniladi.

Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontal va vertikal bo'ladi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilarga bo'linadi. Sintaktik tabiatiga ko'ra so'z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur ishimizda biz ham Saida Zunnunova she'rlaridagi takrorlanuvchi birliklarni qaysi turkumga mansubligiga ko'ra hamda sintaktik tabiatiga ko'ra turlarga bo'lib, tahlil qildik.

Muhokama. Shoir she'rlaridagi takrorlar birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

a) Ot takrori

Tarnovlar tishlagan novvotlarda **qor**.
Yuziga billurdan nafis to'r tutib,
Daraxtlar shoxida, bo'g'otlarda **qor**,
Qor qo'ynida jimjit oqadi anhor.

Epifora — bu adabiy vosita bo'lib, satr yoki gap oxirida bir xil so'z yoki so'z birikmasining takrorlanishi orqali ritm yaratish, fikrni ta'kidlash va ohangni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu she'rda qo'llanilgan qor - ot takrori epiforaning go'zal namunasi hisoblanadi. She'rning birinchi ikki misrasida so'zlar oxirida **qor** leksemasi takrorlangan. So'z oxirida bir xil so'zning takrorlanishi misralarga musiqiy ohang beradi va o'quvchi ongida manzarani vizual jihatdan mustahkamlaydi. Qor tasviri she'rning markaziy obraziga aylanadi, qish mavsumining sokin va sovuq ruhini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, qor so'zining takrorlanishi orqali tabiatning sokinligi, jimjitligi va go'zalligini o'quvchiga sezdiradi.

She'rda ishlatilgan epifora nafaqat ritmik funktsiyani bajaradi, balki obrazlarni markazlashtirish, manzara tasvirining vizual va emotsional ta'sirini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu holat epiforani she'riyatda estetik va semantik vosita sifatida tadqiq qilish imkonini beradi.

Xayollardan qanot bog'lab o'ziga,
U yillar chaqmoqdek bir yonib so'ndi.
Mushtoqu zor qilib endi **iziga**
Qirov bo'lib sochga bildirmay qo'ndi,
Zorman **iziga**.

She'rda epifora so'zning oxirida takrorlanishi orqali ritmik ohang va dramatik ta'sir yaratadi. Takrorlangan so'z **iziga** she'rning markaziy motivini belgilaydi, ya'ni shoirning ichki intilishi, izlanishi va ehtirosi. Bu epifora nafaqat estetik va ritmik, balki psixologik va semantik funktsiyani ham bajaradi, zamonaviy o'zbek lirik poetikasida stilistik samaradorlikni oshiradi. Bu yerda so'z takrorlanishi shoiraning markaziy mavzusi **izlanish, orzu va intilish ni o'quvchiga** yanada ta'sirli tarzda yetkazadi.

b) olmosh takrori

Bolamdan sizni **kim** ayirmoqchi, **kim**?
Uning sho'xligiga hamroh bo'lingiz,
Yuzi, sochlarida porlang, qo'ningiz,
Yo'q, sizni bulg'olmas, bulg'olmas **hech kim**!

She'rning birinchi va oxirgi satrlari oxirida **kim** so'zining takrorlanishi epifora hosil qiladi. Bu takrorlash she'rning bosh va oxirida semantik halqa yaratib, **kim?** savolining javobsizligidan **hech kim!** degan qat'iy xulosaga o'tadi. Shu tarzda epifora mazmuniy doirani mustahkamlaydi. **Kim** so'zining takroriy ohangi she'rga intonatsion keskinlik, dialogsimon dramatism, urg'u beruvchi musiqiylik bag'ishlaydi. Satr oxirida jaranglaydigan bu bir bo'g'inli so'z she'rning ohangini qat'iy va dadil yakunlaydi. Bu takrorlash ritmik, semantik, psixologik va emotsional jihatdan muhim vazifalarni bajaradi. Epifora she'rning mazmuniy dramatzimini, bola va poklik g'oyasini yuksaltirgan markaziy stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

c) fe'l takrorlari

O'ylardim: yulduzlar yuborganmikan?
O'ylardim: yulduzlar shuncha bormikan?..

She'rning ikki satrida **o'ylardim** iborasi boshida takrorlanadi. Bu takrorlash epifora sifatida ishlatilgan va she'rning markaziy motivini — tafakkur, hayrat va yulduzlarga bo'lgan e'tibor — kuchaytiradi. Takrorlangan ibora she'rga ritmik oqim va musiqiylik beradi. Satr boshidagi takrorlash o'quvchida tafakkur va hayrat ohangini yaratadi.

Sintaktik tabiatiga ko'ra:
a) so'z birikmasi takrori

Ranglar jilvalanar qalbingni yoqib,
Ranglar jilvalanib yonadi nogoh.
Go'zallik sirini yashirgansimon,
Tog'lar parda tutib harir tumandan.

Misra ranglarning harakatini his bilan bog'laydi: **ranglar jilvalanar** — yorqin, jonli o'zgarishni bildiradi. Ranglar tashqi emas, ichki olamga ta'sir qilayotgan kuch sifatida tasvirlangan. Ikkinchi misra birinchi misradagi tuzilmaning takroriy davomidir. Keyingi misrada manzara ichki holatga o'tadi. Ranglarning avvalgi misralarda kuchaygan harakati endi sir bilan bog'lanadi. Yashirgansimon — go'zallikning bevosita ochilmayotgani, ichida bir sir saqlayotganini anglatadi. So'nggi misrada oldingi sir tutish holati predmetga ko'chadi: tog'lar pardadek tuman bilan yopilgan. Harir so'zi tasvirni yengil, nozik qatlam bilan boyitadi. Uchinchi misradagi sirning davomiyligi shu pardadan seziladi — sirning tashqi manzaradagi ifodasi beriladi. Misralardagi **ranglar jilvalanar / ranglar jilvalanib** shaklidagi parallel boshlanish — tasvirning ich-ichidan kuchayishini ko'rsatuvchi badiiy ta'kidir. Takror ranglar harakatining bir holatdan ikkinchisiga keskin o'tishini ifodalab, she'rning hissiy kuchini oshiradi. So'nggi ikki misrada esa kuchaygan yorqinlik sirli pardaga almashib, tasvir sokinlikka o'tadi.

b) jumla takrori

Qizim qo'shiq kuylaydi...
Yoki oqshomni quvlab tong kelyapti tog'lardan,
Yo atirgul g'unchasi yaproq yozdi shu mahal.
Qarang, aziz odamlar, dalalarda, bog'larda
Kurtaklarni siypalab kezib yuribdi hamal.
Qizim qo'shiq kuylaydi...

Birinchi misra — she'rning markaziy mavzusini, qizning kuylashi orqali hayot va tabiat bilan uyg'unlikni ochadi. Keyingi misrada vaqt tasviri beriladi: tun o'tib tong kirishi. Avvalgi misradagi kuylash hissi tabiiy ritm bilan bog'lanadi, misraning ohangi esa jonli, davomiy harakatni his qiladi. Uchinchi misrada tabiat tasviri bilan birga qizning kuylash kayfiyati uyg'unlashadi. Shoir rang-barang, nozik obrazlar bilan kuylashning go'zalligini va hayotiy energiyani kuchaytiradi. Misraning oxirida boshdagi misra takrorlanadi. Bu takror shunchaki boshlanishga qaytish emas, balki she'rning markaziy mavzusini yakuniy urg'u bilan ta'kidlash, qizning kuylashidan hosil bo'lgan tabiat va hayot uyg'unligini mustahkamlash kabi hissiy cho'qqini beradi.

⁷ Кўнгулов Р.

⁸ Абдулаттоев М. О_ша манба. – В. 242

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Saida Zunnunova she'rlarida takrorlarning bir necha turidan foydalangan. Takroriy birliklar matnni shakllantirib, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi vositalardan biri, badiiy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik vositalar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2009.
2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Andijon, 2003.
3. Saida Zunnunova. She'rlar. - Toshkent, 1982.
4. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Farg'ona, 2019.

mazmunning estetik vazifasi reallashuvida faol ishtirok etgan. Takrorlarning asosiy xususiyati poetik ta'kid hosil qilishidir.

5. Toshxo'jayeva Sh. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Farg'ona, 2017.
6. Yoqubjonova M. Badiiy matnlarda antitezaning qo'llanilishi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. - Toshkent, 2022.
7. Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - Toshkent, 2007.
8. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2007.